

## TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM

JDPI o'qituvchisi, Axmedova Shoxida  
JDPI talabasi, Qo'chqorov Isroil

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishni nazarda tutadi.

**Kalit so'zlar:** shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari, metodika, o'qitish texnologiyalari, o'quv jarayoni.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – ta'lim jarayonining asosiy ob'ekti o'quvchi (talaba, tarbiyalanuvchi) bo'lib, uning shaxsi, qadr- qimmatini yuqori o'ringa qo'yadigan, asosiy e'tiborni intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini boyitish, ma'naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratadigan pedagogik faoliyat turi. O'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash, o'qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkon yaratadi. Endi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning nima uchun bugungi kunda dolzarb bo'lib borayotganligi, nima uchun mazkur texnologiyalar ta'limning hozirgi kuni, kelajagi bo'lib qolganligi hamda ularning mohiyati haqida qisqacha to'xtalamiz.

Mazkur o'qitish texnologiyasida pedagogikaning o'quvchiga munosabati avtoritar xarakterga ega, ya'ni ta'lim jarayonida u yagona subyekt sifatida namoyon bo'ladi, o'quvchilar esa faqatgina obyekt vazifasini bajaradi, xolos. Boshqacha qilib aytganda avtoritar o'qitish texnologiyasida o'quvchining tashabbusi va mustaqilligi deyarli yo'qoladi, o'qitish majburiy yo'sinda amalga oshiriladi. Hanuzgacha jahonda eng ko'p tarqalgan o'qitishning sinf-dars tizimida mashg'ulotlari asosiy birligi dars bo'lib, u bitta fanining bitta mavzusiga bag'ishlanadi va o'qituvchi tomonidan boshqariladi.

An'anaviy o'qitish texnologiyasining qusurlari ustida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997 yil 29 avgust) Birinchi Prezident Islom Karimov bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi? Umuman maktabda mustaqil fikr yuritishga o'rgatiladimi? degan savollarni qo'ydilar va ularga quyidagicha 25 javob berdilar: «Aminmanki, o'rgatilmaydi. Mobodo biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga u hych kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktabdagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: «Mening aytganim-aytgan, deganim-degan». Demak, an'anaviy ta'lim texnologiyasida o'qituvchi va o'quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik, ya'ni zo'ravonlik pedagogikasi amal qiladi». An'anaviy o'qitish texnologiyasining boshqa qusurlarini ham namoyish qilish maqsadida 1-rasmning chap tomoniga diqqatingizni jalb qilamiz: ko'rinib turibdiki, birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, zo'ravonlikka asoslangan bu pedagogikada pedagog yagona su'bekt, o'quvchilar pedagogik jarayon obyekti, o'qitish tushuntiruv-ko'rgazmali usulda olib boriladi. O'qitish ommaviy tarzda olib borilishi tufayli o'quvchilarning tashabbusi va mustaqilligi o'zidan-o'zi so'nib boraveradi. Shu bois texnologiya asosan o'quvchilarda bilim, ko'nikmalarni shakllantiradi, ular shaxsini rivojlantirishni ko'zda tutmaydi. O'z-o'zidan ko'rinadiki, an'anaviy o'qitish texnologiyasi o'z tabiatiga ko'ra ta'lim muassasalari oldiga jamiyatimiz tomonidan qo'yilgan talablarga butunlay javob bermaydi. Bundan farqli o'laroq shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda o'quvchi ta'limning milliy modeli mohiyatiga ko'ra pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratib beriladi. Ta'limning milliy modelini – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishdan iborat 5 ta tarkibiy qismida «shaxs» asosiy tarkibiy qism – birinchi o'rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta'lim tizimi, shu jumladan o'qitish o'quvchi shaxsiga yo'nartirilgan bo'lishi lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning muammoli ta'lim, modul ta'limi dasturiy ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim, o'yin texnologiyalari, interfaol ta'lim, hamkorlik

ta'limi, tabaqalashtirilgan ta'lim, individual ta'lim, masaofaviy ta'lim, mustaqil ta'lim va innovatsiya ta'lim kabi turlari mavjud. Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona sub'ekt sifatda namoyon bo'ladi, o'quvchilar esa faqatgina «ob'ekt» vazifasini bajaradi xolos. Bunda o'quvchining tashabbusi va mustaqilligi yo'qoladi, o'qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. An'anaviy o'qitish asosan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, shaxsning rivojlanishini ko'zda tutmaydi. An'anaviy o'qitish quyidagi xususiyatlarga ega: zo'ravonlik pedagogikasi, o'qitishning tushuntiruv-ko'rgazmali usuli, ommaviy o'qitish. An'anaviy o'qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo'ladi: o'quvchi bu hali to'la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa - bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda esa o'quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tizimining milliy modeliga alohida e'tibor qaratilgan. Bu model 5 tarkibiy qismdan iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish. Bu erda ta'lim milliy modelining asosiy tarkibiy qismi - «shaxs» birinchi o'rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta'lim tizimi, shu jumladan, o'qitish shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g'ayri insoniy hisoblanadigan zo'ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu tamoyilni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashdadir. Umuman olganda tarbiya jarayonida zo'ravonlik mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda qulchilik xususiyatlarini shakllantiradi.

Yaponiyaning zamonaviy pedagog-olimlari bolani kuniga 200 martagacha erkalatishni tavsiya beradilar. Bu zamonaviy g'oyalarning debochasi, buyuk ajdodimiz Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Bolaga rahmdillik qilmoq, uni o'pib quchoqlamoq haqida» yoritilgan. SHaxsga yo'naltirilgan o'qitish

texnologiyalarning o'zagi shaxslar o'rtasidagi yuqori qadriyatlarga, teng huquqlilikka asoslangan munosabat hisoblanadi.

An'anaviy o'qitish texnologiyasining qusurlari ustida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997-yil 29-avgust) Birinchi Prezident Islom Karimov bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi? Umuman maktabda mustaqil fikr yuritishga o'rgatiladimi? degan savollarni qo'ydilar va ularga quyidagicha 25 javob berdilar: «Aminmanki, o'rgatilmaydi. Mobodo biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga u hych kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktabdagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: «Mening aytganim-aytgan, deganim-degan». Demak, an'anaviy ta'lim texnologiyasida o'qituvchi va o'quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik, ya'ni zo'ravonlik pedagogikasi amal qiladi». Ko'rinib turibdiki, birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, zo'ravonlikka asoslangan bu pedagogikada pedagog yagona subyekt, o'quvchilar pedagogik jarayon obyekt, o'qitish tushuntiruv-ko'rgazmali usulda olib boriladi. O'qitish ommaviy tarzda olib borilishi tufayli o'quvchilarning tashabbusi va mustaqilligi o'zidan-o'zi so'nib boraveradi. Shu bois texnologiya asosan o'quvchilarda bilim, ko'nikmalarni shakllantiradi, ular shaxsini rivojlantirishni ko'zda tutmaydi. O'z-o'zidan ko'rinadiki, an'anaviy o'qitish texnologiyasi o'z tabiatiga ko'ra ta'lim muassasalari oldiga jamiyatimiz tomonidan qo'yilgan talablarga butunlay javob bermaydi. Bundan farqli o'laroq shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda o'quvchi ta'limning milliy modeli mohiyatiga ko'ra pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratib beriladi. Ta'limning milliy modelini - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishdan iborat 5 ta tarkibiy qismida «shaxs» asosiy tarkibiy qism - birinchi o'rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta'lim tizimi, shu jumladan o'qitish o'quvchi shaxsiga yo'nartirilgan bo'lishi lozim.

Ko'rinib turibdiki, kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh maqsadini, ya'ni mamlakatimizda rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni, oliy va o'rta maxsus tayyorlash tizimini, ularda o'ziga xos va nostandart fikrlash qobiliyatini o'stirishni, o'z ustida doimiy ravishda chidam va matonat bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishni an'anaviy o'qitish texnologiyasi asosida amalga oshirish mumkin emas.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Indiaminov N. va b. Ta'lim samaradorligini oshirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Ta'lim texnologiyalari. 2014(8).
2. Ахунова Г.Н., Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойихалаштириш ва режалаштириш. / Б.Ю.Ходиев тахрири остида. - Т.: «Идтисодиёт», 2009.
3. Основы личностно-ориентированного образования. / И.С.Якиманская. - М.: «Бином. Лаборатория знаний», 2011.
4. Sherov, D. (2020). Succession Issues in Teaching English. Academic Research in Educational Sciences, (3).
5. Rahim, A., & Doston, S. (2020). IMPROVING THE CONVERSATIONAL PROCESS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING. International Engineering Journal For Research & Development, 5(1), 6-6.
6. Makhmudov, K. (2021). Effective methods of teaching reading in English language lessons. Academic research in educational sciences, 2(3).
7. Siddiqova, S. (2021). ЎҚУВ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Джизакское инновационное образование*, 1(1).
8. Siddiqova, S. (2022). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МУСТАҚИЛ ФИКРЛОВЧИ, ИЖОДКОР ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(3).

9. Siddiqova, S. K. (2021). INCREASE THE CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS COGNITION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Theoretical & Applied Science*, (2), 24-26.
10. Siddiqova, S. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БИЛИШ, ИЖОДИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(3).
11. Siddiqova, S. (2021). ЎҚУВ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Джизакское инновационное образование*, 1(1).
12. Isoqulov, M. (2022). ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ МАЪРИФАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ВЕРТУАЛ СТЕНДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5620>
13. Isoqulov, M. (2022). ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ ОНГИДА ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ КУРАША ОЛИШ ТАФАКУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ОИЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4746>
14. Soibnazarova, M. (2022). YOSHLAR TARBIYASIDA ABDURAHMON JOMIYNNIG ASARLARIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5634>
15. Sanakulova, Z. A., & Soibnazarova, M. N. (2017). Modular training as a pedagogical technology. *Pedagogicheskoe masterstvo: X Mezhdunarodnaya nauchnaya konferentsiya, Moskva, iyun'2017*
16. Soibnazarova, M. (2022). ЁШ АВЛЮДНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯСИДА МУТАФАККИРЛАРНИНГ ФИКРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Журнал Педагогика и психологии в современном*

<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5573>

17. Санакулова, З. А., & Соибназарова, М. Н. (2017). Модульное обучение как педагогическая технология. In Педагогическое мастерство (pp. 20-22).

18. Санакулова, З. А., Соибназарова, М. Н., Бойтураева, Н. И., & Юлдашев, Ш. Э. (2016). Психологические условия формирования навыков самостоятельного мышления у учащихся. Молодой ученый, (8), 1022-1024.

19. Axmedova, S. (2022). MAKTABLARDA O'QITISH TIZIMINING TA'LIM OLUVCHILAR YOSHI BILAN BOG'LIQLIGI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5879>

20. Axmedova, S. (2022). SAMARALI RAHBARLIKKA XOS XISLATLAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5102>

21. Axmedova, S. (2022). TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING MA'NAVIY QIYOFASI, MADANIYATI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4904>